

TIL TA`LIMIDA SOHIBQIRON MEROSIDAN FOYDALANISH

Murodova Lobar

Jizzax davlat pedagogika instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Istiqlol tufayli Ahmad Yassaviy, Bahoviddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug’bek kabi yorqin siymolarning tavallud to`ylari ma`naviy hayotimizga joziba bag’ishladi. Ta`lim maskanlarida Sohibqiron bobomiz Amir Temurning boy ma`naviy merosidan, pand-nasihatlaridan foydalanishning imkoniyatlari katta.

Kalit so‘zlar: Ahmad Yassaviy, Bahoviddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug’bek, darslik, qadriyat.

Odatda, darsliklarda berilgan mashqlarni shartiga rioya qilgan holda ishlatiladi va o`rni bilan mustaqil gaplar ham tuzdiriladi. SHu o`rinda o`qituvchi quyidagi gaplarni tavsiya qilishi mumkin:

1. Amir Temur o`z sarkardalik salohiyati va tadbirkorligi tufayli Markaziy Osiyoda markazlashgan davlat tuzgan.
2. Amir Temur o`z ustozlarini e`zozlab va qadrlab, ularga qulay sharoit yaratib bergan.
3. Ulug’ bobomiz o`ta shijoatli, jasoratli, botir, dovyurak, tadbirkor, usta siyosatchi singari fazilatlarga ega bo`lgan.

Sohibqiron merosidan olingan “Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarni esa o`z yomonliklariga topshirdim, kim menga do`stlik qilgan bo`lsa, do`stligi qadrini unutmadi va unga muruvvat, ehson, izzatu-ikrom ko`rsatdim.” kabi gaplarning sintaktik tahlili jarayonida yaxshilik qilish, ahillik va do`stlikning kuchi , milliy an`analarimizni e`zozlash kabi mazmun o`quvchilar tushunchasining o`sishiga yordam beradi. Bu gaplar asosida grammatik topshiriqlarni bajarish bilan birga, ular mazmunini kichik suhbatlar vositasida izohlash ham ko`zlangan samaraga olib keladi.

O`tkaziladigan yozma ishlarning ma`lum qismi odatda o`quvchilar dunyoqarashini oshiruvchi vosita-kitobga bag’ishlanadi. Mana shu o`rinda bobomizning kitobni juda qadrlaganligini, dunyoning hamma joylaridan noyob durdonalarni Samarqandga yig’dirib, boy kutubxona tashkil qilganligini ta`kidlansa, bu ulug’ siyemoning ilm-fan rivojiga katta ta` sir ko`rsatganligi haqida o`quvchilar tasavvuri kengayadi. “Temur - adolatli xukmdor”, “Temur barpo etgan yodgorliklar”, “Temur - ozodlik va mustaqillik uchun kurashchi” kabi mavzularda diktant yozdirish o`quvchilarda o`tmishga, boy madaniy va ma`rifiy merosga hurmat uyg’otadi. “Temur - sarkarda”, “Temur - yuksak insoniy fazilatlar egasi”, “Temur - ilm-fan va madaniyat homiysi”, “Temur vasiytatlari”, “Biz Temur avlodimiz !” mavzularida bayon va insholarning ko`rik tanlovlari o`tkazilsa, o`quvchilarda o`z ona Vatani haloskori, uning gullab-yashnashi uchun jon fido qilgan Amir Temurga nisbatan mehr va faxr tuyqusi uyg’onadi.

Ona tili mashg'ulotlarini Amir Temur faoliyatiga bog'lashda "Temur tuzuklari", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnonma", Ibn Arabshohning "Temur tarixidan taqdir ajoyibotlari", Rui Gonsales Klavixoning "Temurbek saroyiga sayohat kundaligi", H.Vamberining "Buxoro yoxud Movarounnaxr tarixi", Mullo Salohiddin eshonning "Temurnoma", Ibrohim Mo'minovning "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli", "Somon yo'li" deb nomlangan mualliflar jamoasi chiqargan to`plam, Xurshid Davronning "Samarqand hayoli" asari, o'qituvchilar gazetasi - "Ma'rifat"da sirtqi dars rukni ostida berilgan olim Naim Norqulovning qator maqolalari va boshqa bir qator ishlar asosiy manbalar bo`la oladi.

Ona tili mashg'ulotlarining birini noan'anaviy tarzda - "Sayohat darsi" shaklida tashkil qilinsa va bu darsdan o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishni maqsad qilib olinsa ham ko'zlangan natija samarali bo`ladi. Masalan, Sohibqiron sultanati poytaxti - Samarqandga rasmlar vositasida sayohat uyuşhtirib, jahongir bobomizning qadamjolari ziyorat qilinadi hamda taassurotlar asosida og'zaki hikoyalar tuziladi.

O'quvchilarni ikki guruhga bo`lib, ularga quyidagicha topshiriqli matn berish mumkin.

1-guruh matni

Mamlakatimiz prezidenti Amir Temurga doir farmonda xalqaro va respublika miqyosida tadbirlar o`tkazilayotganiga ishora qiladi. Bu bilan ushbu tadbirning jahonshumul ahamiyatini ta`kidlaydi. Mammuniyat bilan aytish kerakki, respublikamizda mustaqillik yillarida bu borada birmuncha ishlar amalga oshirildi. Ilk mustaqillik bayrami tantanalaridayoq buyuk davlat arbobi, Sohibqiron Amir Temur siymosi sahnaga olib chiqildi. Bundan hayajonga tushmagan kishi qolmadidi. Chunki mustaqillik maydonida Amir Temur tulpor minib, salobat ila xalqiga peshvoz chiqib kelardi.

Berilgan matndan fe'llarni ajratib daftaringizga ko`chiring. Ularni nisbat va mayl jihatdan izohlang.

2-guruh matni.

O`zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov Amir Temur xaçida asar yozish uchun izlanish shjarayonida o`zi duch kelgan, boxabar bo`lgan ma`lumotni Qashqadaryodagi xalq saylida shunday hikoya qiladi: - Bobomizning Xindistondan Bolqongacha bo`lgan yurtlarni birlashtirgan ulkan mamlakatida o'g'riliq qaroqchilikka butunlay barham berilgan edi. Mamlakatning u boshidan bu boshigacha bironta yosh bolaning boshiga oltin to`la savat qo'yib jo`natsangiz, uning bir misqoli ham kamaymasdan etib kelar ekan. Amir Temur xazratlari viloyatlar va tumanlarning hokimlariga qo`yan qattiq talablari bilan shunday adolatli davlat tuzishga erishgan ekanlar.

Matndagi olmoshlarni daftaringizga ko`chiring. Bu olmoshlarni ma`nosi va tuzilishiga ko`ra izohlang. Matn mazmuniga o`z munosabatingizni bildiring.

Albatta, ona tili mashg'ulotlarining bir qirrasini bobomiz Amir Temurga bog'lash mavsumiy bo`lmay, balki yil davomida amalga oshirilsa, o'quvchilarning tariximiz haqidagi bilimlari, tasavvurlari boyib boradi.

Demak Sohibqiron merosi o`quvchilarni ma`naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalashda boy manba hisoblanadi. Amir Temurning xalqimiz tarixidagi jahonshumul o`rnini tushuntirish maqsadida shunga oid insho, bayon, diktant kabi yozma ishlar olish, yozma ishlar tahlili jarayonida tarbiyaviy o`rinlarga alohida diqqat qilish, ulug' bobomiz haqida kitob ko`rgazmalarini tashkil qilish, devoriy gazetalar chiqarish, albomlar tayyorlash, ona tili mashg'ulotlarida buyuk bobomizga doir tadbirlarni ma`lum reja asosida muntazam o`rkaza borish o`quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshiradi, yoshlarda Amir Temurdek o`z imkoniyatlari va kuchiga ishonish tuygusini shakllantiradi, yosh avlodda milliy iftihor paydo bo`ladi, mustaqil O`zbekiston istiqbolidan faxrlanish va vatanparvarlik tuyg'usi tarbiyalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaev F.A. So`zlar o`zaro qanday bog'lanadi? Toshkent, 1974.
2. Abdullaev F.A. Til qanday rivojlanadi? Toshkent. 1972.
3. Abdurahmonov G', Shukurov Sh. O`zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O`qituvchi, 1973. – 320 bet.
4. B.To`xliev, M.Shamsieva, T.Ziyodova. O`zbek tili o`qitish metodikasi. Toshkent, 2006 yil